
Viloyatimiz aholisi va shahrimiz mehmonlarni 23-marotaba o'tkazilayotgan "Asal bayrami"ga taklif etamiz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahrida "Asal bayrami" tashkil etildi.

30 noyabr kuniga qadar o'tkazilishi rejalashtirilgan "Asal bayrami" davomida viloyatimizdagi asalarichilik xo'jaliklarida yetishtirilgan asal mahsulotlari xalqimiz dasturxoniga yetkazish va turli xildagi asal mahsulotlari ko'rgazmasini o'tkazish rejalashtirilgan. 50 nafardan ortiq asalarichilar tomonidan fuqarolarga kerakli tavsiyalar va ma'lumotlar ham berilmoqda.

Viloyat va shahar hokimliklari hamda "Asalarichilar" uyushmasi tomonidan tashkillangan "Asal bayrami" Farg'ona shahridagi Markaziy dehqon bozori old maydonida kun davomida o'tkazilmoqda. Viloyatimiz aholisi va shahrimiz mehmonlarni 23-marotaba o'tkazilayotgan "Asal bayrami"ga taklif etamiz.

2023-11-22 14:17:09